“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=367

2026-yil
5-son
may
ISSN 3093-8546



BMTning inson huquqlari bo‘yicha shartnomaviy organlarining xalqaro tashkilotlar tizimida tashkil topishining o‘ziga xos xususiyatlari

Nixola Mirzayeva,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: mirzayevanihola2@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada BMT inson huquqlari bo‘yicha shartnomaviy organlarining xalqaro tashkilotlar tizimida tashkil topishining o‘ziga xos xususiyatlari va mavjud institutsional muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqotda BMT inson huquqlari bo‘yicha shartnomaviy organlarining tashkil etilishi uchun dastlabki asos sifatida ko‘rilgan BMT nizomining tegishli moddalari, 1948-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi” va qo‘mitalarni tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan xalqaro shartnomalarning mazmun-mohiyati yoritilgan. Mazkur tadqiqotda shartnomaviy organlar tashkil etilishi jarayoni va muzokaralar atroflicha bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Shu bilan birga shartnomaviy organlarni tuzishdagi institutsional muammolar ochib berilgan va ularni bartaraf etish va shartnomaviy organlar tizimini mustahkamlash va isloh qilish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan. Maqola natijalari BMT inson huquqlari bo‘yicha shartnomaviy organlari tizimidagi institutsional muammolarni bartaraf etish va tizimni isloh qilishda nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Калит сўзлар. BMT inson huquqlari bo‘yicha shartnomaviy organlari, BMT nizomi, inson huquqlari

Аннотация. В данной статье анализируются особенности формирования договорных органов ООН по правам человека в системе международных организаций, а также существующие институциональные проблемы. В исследовании рассматриваются соответствующие статьи Устава ООН, которые рассматриваются как первоначальная основа для создания договорных органов, Всеобщая декларация прав человека, принятая 9 декабря 1948 года, а также содержание международных договоров, послуживших основой для создания комитетов. В исследовании поэтапно подробно анализируются процесс формирования договорных органов и переговоры. Кроме того, выявлены институциональные проблемы при создании договорных органов, а также предложены меры по их устранению, укреплению и реформированию системы договорных органов. Результаты статьи имеют теоретико-практическое значение для устранения институциональных проблем в системе договорных органов ООН по правам человека и реформирования этой системы.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ключевые слова. договорные органы ООН по правам человека, Устав ООН, права человека

Annotation. This article analyzes the unique characteristics and existing institutional problems of the establishment of the UN treaty bodies within the system of international organizations. The study highlights the relevant provisions of the UN Charter, considered as the initial basis for the establishment of the UN treaty bodies, the "Universal Declaration of Human Rights" adopted on December 9, 1948, and the content and essence of the international treaties that served as the basis for forming the committees. In this study, the process of establishing treaty bodies and the negotiations are thoroughly analyzed step by step. At the same time, the institutional problems in the formation of treaty bodies are revealed, and proposals are put forward to address them and to strengthen and reform the treaty body system. The results of the article are of theoretical and practical significance in addressing institutional problems within the system of UN human rights treaty bodies and reforming the system.

Keywords. UN human rights treaty bodies, UN Charter, human rights

Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlarining xalqaro huquqiy maqomi masalasi xalqaro huquqning zamonaviy tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Ushbu institutlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi umuminsoniy xalqaro shartnomalar normalariga asoslangan shaxslarni himoya qilishning xalqaro mexanizmlari evolyutsiyasining tabiiy natijasi bo'ldi. XX asr o'rtalarida urushdan keyingi dunyoda inson huquqlari xalqaro huquqiy tartibotning asosiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalaridan biri sufatida e'tirof qilina boshlandi va ularni himoya qilish davlatlarning xalqaro majburiyatiga aylandi.

1945-yilda tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini e'tirof etishni faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan birinchi universal xalqaro tashkilot bo'ldi. Aynan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarkibida shartnomaviy organlarining keng qamrovli tizimi – ishtirokchi-davlatlar tomonidan tegishli xalqaro pakt va konvensiyalarning bajarilishini nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan qo'mitalar tuzildi. Bu organlar davlatlarning inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarini amalga oshirishning institutsional mexanizmining ajralmas qismi bo'lib, shartnoma normalariga huquqiy samaradorlikning yangi darajasini berdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnoma organlarining rivojlanishi asta-sekin sodir bo'ldi, chunki inson huquqlari bo'yicha asosiy universal shartnomalar qabul qilindi. Ushbu bitimlarning har biri nazorat organini tashkil etdi, uning vakolatlari, tarkibi va tartiblari inson huquqlari bo'yicha majburiyatlarning mohiyati to'g'risidagi xalqaro tushunchalarning evolyutsiyasini aks ettirdi. Bu institutlar birgalikda BMT tuzilmasi doirasida universal va shartnomaviy huquqning kesishmasida joylashgan, ularning yagona xalqaro huquqiy maqomini belgilab beruvchi maxsus quyi tizimni tashkil qiladi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

BMT doirasida inson huquqlarini himoya qilishning universal tizimini shakllantirish davri Ikkinchi jahon urushidan keyingi xalqaro hamkorlikni institutsionalizatsiya qilish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. 1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomining qabul qilinishi urushlararo yillarga xos bo‘lgan shaxsiy huquqlarni tan olishning deklarativ shakllaridan ularni davlatlarning huquqiy majburiyatlari sifatida mustahkamlashga o‘tishni ko‘rsatdi. Nizomning muqaddimasi va 1,55 va 56-moddalarida irqi, jinsi, tili va dinidan qat’i nazar barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmat va ularga rioya etilishini rag‘batlantirishga oid qoidalar mavjud. Bu esa BMT homiyligi ostida inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlarini keyinchalik rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratdi. Inson huquqlari tizimida keyingi muhim qadam 1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur deklaratsiya yuridik kuchga ega bo‘lmasa-da, inson huquqlarining universal standartlarini ishlab chiqishda asosiy rol o‘ynadi va yuridik kuchga ega bo‘lgan shartnoma hujjatlarini ishlab chiqish uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qildi. Deklaratsiyada inson huquqlarining universalligi va ajralmasligi mustahkamlangan bo‘lib, bu ularni amalga oshirish va monitoring qilishning samarali mexanizmlarini yaratish zaruriyatini tug‘dirdi. 1950-1960-yillarda BMT inson huquqlarini kodifikatsiyalashtirishning jadal jarayonini boshdan kechirdi. [1:116-126]

Yuqorida ta’kidlanganidek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi, BMT uchun majburiy tusga ega bo‘lgan inson huquqlari bo‘yicha mexanizmlarning ishlab chiqish zaruratini vujudga keltirdi. 1948-yil 9-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinishidan bir kun oldin, Bosh assambleya dastlabki BMTning inson huquqlari bo‘yicha shartnoma hisoblangan Genotsid jinoyatini jazolash va oldini olish to‘g‘risidagi konvensiyani qabul qilib ulgurgan edi. Dastlab, “Sovuq urush” davrida bir tomondan fuqarolik va siyosiy huquqlar, ikkinchi tomondan, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar o‘rtasida kuchayib borayotgan mafkuraviy bo‘linish ikkala huquqlar to‘plamini yagona hujjat – Umumjahon deklaratsiyasiga kiritish orqali bartaraf etildi. Bu qisman Ikkinchi jahon urushidan keyin yuzaga kelgan jadal o‘zgarishlar va qisman Eleanor Ruzvelt va uning hamfikrlari rahbarligi bilan bog‘liq edi.

Ma’lum vaqt davom etgan muzokaralar majburiy huquqiy hujjatlarni tayyorlashga jahon hamjamiyatining hali tayyor emasligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ammo keying yigirma yillikda mazkur majburiy tusga ega bo‘lgan xalqaro shartnomalarni tuzishga bo‘lgan urinishlar qayta tiklandi. Shunday qilib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti alohida-alohida Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani, shu bilan birgalikda uning birinchi Qo‘shimcha protokolini qabul qildi. Yuqoridagi xalqaro shartnomalar qabul qilinishidan bir yil oldin BMT Bosh assambleyasi tomonidan Barcha turdagi irqiy kamsitishlarni yo‘q qilish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiya qabul qilingan edi. Mazkur konvensiyalarning a’zo davlatlar tomonidan implementatsiya qilinishini nazorat qilish uchun Inson huquqlari qo‘mita, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mita va Irqiy kamsitishlarga barham berish bo‘yicha qo‘mitalar tashkil qilindi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Mazkur uchta shartnoma hozirgi kunda “shartnomaviy organlar” deb nomlanadigan nazorat qiluvchi mexanizmni tashkil qilish orqali Genotsidga qarshi konvensiyada qilingan e’tiborsizlikka barham berdi [2:11].

Birinchi shartnomaviy organlarga keyinchalik inson huquqlari bo‘yicha quyidagi shartnomalar bo‘yicha quyidagi yana uchta shartnomaviy organ qo‘shildi. Bular Ayollarga nisbatan barcha turdagi irqiy kamsitishlarga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyaning implementatsiya qilinishini nazorat qiluvchi Ayollarga nisbatan kamsitishga barham berish bo‘yicha qo‘mita, Qiynoqlarga qarshi va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy, qadr-qimmatni kamsituvchi munosabat va jazoga qarshi konvensiyaning implementatsiya qilinishini nazorat qiluvchi Azoblarga qarshi qo‘mita, shu bilan birga Bola huquqlari bo‘yicha konvensiyaning a’zo davlatlar tomonidan implementatsiya qilinishini nazorat qiluvchi Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mita kiradi. Keyinchalik Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a’zolari huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro konvensiyaning a’zo davlatlar tomonidan implementatsiya qilinishini nazorat qilish maqsadida Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a’zolari huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qo‘mita, Majburiy yo‘qolgan Barcha shaxslarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro konvensiyaning implementatsiya qilinishini nazorat qilish maqsadida Barcha shaxslarni majburiy yo‘q qilinishdan himoya qilish bo‘yicha qo‘mita va nihoyat Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro konvensiyaning implementatsiyasini nazorat qilish uchun Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari bo‘yicha qo‘mita tuzildi. Bulardan tashqari, Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolarga qarshi konvensiyaning fakultativ protokoli asosida tashkil etilgan Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlarining oldini olish bo‘yicha quyi qo‘mita BMT darajasida faoliyat yurituvchi yana bir shartnomaviy organdir. Biroq yuqoridagi shartnomaviy organlarning tashkil qilinishi bir qator bosqichlar va muhokamalarni boshidan kechirdi.

Xususan, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi konvensiyaga kelsak, uni implementatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar konvensyani ishlab chiqish jarayonidagi eng munozarali mavzulardan biri bo‘ldi. Sharqiy blokdagi ishtirokchi davlatlar loyihani tayyorlash jarayonining dastlabki bosqichlarida bo‘lgani kabi, nafaqat majburiy hisobot berish tartibini kiritishga, balki davlatlararo shikoyatlar mexanizmini qabul qilishga yoki individual shikoyatlar tartibini kiritishga ham qarshilik bildirishdi. Boshqalar esa fuqarolik va siyosiy huquqlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishini inobatga olib, majburiy amalga oshirish mexanizimiga aylangan hisobot berish tartibining maqsadga muvofiqligiga shubha bilan qarashdi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya qoshidagi nazorat organi bo‘yicha birinchi “rasmiy” taklif 1951-yil aprel oyida Livan vakili tomonidan kiritilgan va 15 a’zodan iborat mustaqil qo‘mita tashkil etishni nazarda tutgan. Biroq hozirgi paytdagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mitaga juda o‘xshash bo‘lgan qo‘mita tuzish taklifi kamchilik tomonidan qo‘llab quvvatlandi. Konvensiyani implementatsiya qilish mexanizmi bo‘yicha boshqa bir qator takliflar ham ilgari surilgan, ammo ularning hech biri ekspertlar organini tuzishni nazarda tutmagan. Qizig‘i shundaki mazkur mavzu muhokamasiga 1954-yilda qayta murojaat qilinganda

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Fransiya vakillari tomonidan yaqinda tashkil etiladigan Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitaga Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha konvensiyaning implementatsiya qilinishini nazorat qilish vazifasini yuklatish taklifini ilgari surdi. Bu taklif boshqa davlat vakillar tomonidan rad etildi va qayta ovozga qo‘yilmadi. Irqiy kamsitishlarga barham berish bo‘yicha qo‘mitani tashkil etish to‘g‘risidagi qoidalar qayta belgilanganidan so‘ng, 1966-yilda BMT Bosh assambleyasi uchinchi qo‘mitani loyihalashtirish jarayonining oxirgi bosqichida “ad hoc” yoki mustaqil qo‘mita shaklidagi modelni tashkil qilishni ilgari surdi. Har ikkala taklif ham turli sabablarga ko‘ra jiddiy qarshilikka duch keldi. Natijada, EKOSOS paktni amalga oshirish uchun mas’ul etib belgilandi. Bunga a’zo davlatlar o‘rtasida monitoring ishtirokchi davlatdagi inson huquqlari bilan bog‘liq vaziyatni tanqidiy tahlil qilishdan ko‘ra texnik yordam ko‘rsatish maqsadiga xizmat qilishi kerak degan munosabatning keng tarqalishi ta’sir ko‘rsatdi [3:7].

Monitoring majburiyatlarini bajarish uchun EKOSOS “Sessiyaviy ishchi guruhi”ni tuzdi, unga kengash ko‘magida taqdim etilgan hisobotlarni ko‘rib chiqish topshirildi. Sessiya ishchi guruhi a’zolari hududiy guruhlar bilan maslahatlashganidan so‘ng kengash raisi tomonidan tayinlandi. Qo‘mita a’zolarining ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar sohasida zarur bilim va tajribasi yetishmayotganligi sababli, 1982-yilda sessiya ishchi guruhi a’zolari ishtirokchi-davlatlar tomonidan taklif etilgan va kengash tomonidan saylangan hukumat ekspertlaridan iborat ishchi guruhga aylantirildi. Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashning konvensiyaning implementatsiya qilinishini nazorat qilish bo‘yicha umumiy faoliyati keskin tanqid qilinganligi sababli, 1980-yilda monitoring uchun mas’ul organni yaratish masalasini muhokama qilishni davom ettirishga qaror qilindi.

Mazkur masala bo‘yicha a’zo davlatlar ikki guruhga bo‘lindi. Birinchi guruh tomonidan Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitaga o‘xshash mustaqil qo‘mita tuzish g‘oyasi ilgari surildi. Ikkinchi guruh davlatlari esa ushbu masala bo‘yicha hech qanday fikr bildirmadi. Va nihoyat ishchi guruh o‘zini mustaqil ekspertlardan iborat qo‘mitaga aylantirish taklifi bilan chiqdi. Natijada, ECOSOS 1985/17 rezolyutsiyasi bilan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo‘mitasini tuzdi.

Kamchiliklarning oldini olish va ozchiliklarni himoya qilish bo‘yicha quyi komissiya tomonidan taqdim etilgan Irqiy kamsitishlarga barham berish bo‘yicha qo‘mitaning birinchi loyihasi dastlab mustaqil monitoring organini yaratishni emas, balki Iqtisodiy va ijtimoiy kengashga hisobot berishni nazarda tutgan. Loyihani ishlab chiqish jarayonida “Yaxshi xizmatlar va kelishuv qo‘mitasi” tuzish bo‘yicha modda qo‘shildi va u keyinchalik hozirgi kundagi Irqiy kamsitishlarga barham berish bo‘yicha qo‘mitaga aylandi. Mazkur qo‘mita BMTning inson huquqlari bo‘yicha birinchi shartnomaviy organi bo‘ldi. Niderlandiya delegatining so‘zlariga ko‘ra, har biri alohida xalqaro shartnomaning implementatsiya qilinishini ta’minlash uchun alohida xalqaro institutlarning tuzilishi maqsadga muvofiq ekanligiga shubha bildirildi. U, shuningdek, xalqaro mexanizmlarning soni ortib borayotganligi va bu tashkiliy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligi haqida fikr bildirdi. Bundan tashqari uning fikricha, inson huquqlari bo‘yicha barcha xalqaro hujjatlarning implementatsiya qilinishi uchun yagona mexanizm yaratish maqsadga muvofiq [4:15].

Ayollarga nisbatan kamsitishga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya bo‘yicha munozaralar yangi qo‘mita tashkil qilish kerakmi yoki monitoringni Ayollar maqomi bo‘yicha komissiyaga topshirish kerakmi degan savollar atrofida aylandi. Loyihani ishlab chiqishning keyingi bosqichida, 15 a’zodan iborat bo‘lgan, o‘z shaxsiy layoqati doirasida faoliyat yuritadigan va konvensiyaga a’zo davlatlar orasidan Ayollar maqomi bo‘yicha kengash tomonidan saylanadigan “ad hoc” guruhni tashkil etish taklif qilindi. Muhokamalar yakunida yana yangi mustaqil ekspertlar organini tashkil qilishga qaror qabul qilindi. Sharhlovchilarning fikriga ko‘ra, Ayollar maqomi bo‘yicha kengash va yaratilgan qo‘shimcha monitoring organining asosiy vakolatlarining takrorlanishiga oid hech qanday asosning yo‘qligi ajablanarli holat edi[3:12].

Azoblarga qarshi konvensiyani nazorat qiluvchi organning tuzilishi ham bir qancha jarayonlarni ichiga oldi. Agarda “shved taklifi” qabul qilinganida monitoring Inson huquqlari qoʻmitasiga topshirilgan boʻlardi va konvensiyaga muvofiq qo‘shimcha nazorat organi tuzilmas edi. Ushbu vazifani Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitaga yuklashning asosiy sabablari Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaning 7-moddasi va Qiynoqlarga qarshi konvensiyaning “bir-biriga o‘xshash kafolatlarni talqin qilishda bir xillikni ta’minlash”, “protseduralarning keraksiz takrorlanishi va murakkablashishiga yo‘l qo‘ymaslik” va boshqa qo‘mitaning tuzilishi bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarni minimallashtirish edi. Biroq BMT yuridik maslahatchisining xulosasida keltirilgan asoslar tufayli konvensiyani implementatsiya qilish uchun javobgarlik Inson huquqlari qo‘mitasiga yuklash g‘oyasi rad etildi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro paktningning 7-moddasi va konvensiya oʻrtasidagi “umumiy muvofiqlik” yetarli emas deb topildi va Inson huquqlari boʻyicha qoʻmita zimmasiga nazorat funksiyasini yuklash Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi paktga oʻzgartirish kiritishga olib kelar edi. Natijada uzoq muddatli muhokamalardan so‘ng loyiha ustida ishlovchilar Azoblarga qarshi qo‘mitaning hozirgi ko‘rinishini o‘zida aks ettirgan Azoblarga qarshi konvensiyaning 17-moddasining yakuniy versiyasini qabul qildi [4:8].

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ishlab chiqish jarayonida ham o‘sha davr uchun dolzarb bo‘lgan qanday turdagi nazorat qiluvchi organni tuzish bilan bog‘liq savol yuzaga keldi. Mazkur jarayonda Iqtisodiy va ijtimoiy kengashga davriy hisobotlar taqdim etish yoki mustaqil “Ekspertlar qo‘mitasi”ni tashkil etish kabi bir qancha takliflar ilgari surildi. Ko‘pchilik shartnomaning implementatsiya qilinishini nazorat qiluvchi mustaqil ekspertlar organini tuzishni yoqlab chiqdi. Boshqalar “qo‘mitalarning soni ortishi” haqida ogohlantirishdi va monitoring vakolatlari Inson huquqlari qo‘mitasi yoki Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo‘mitasiga berilishi bo‘yicha taklif ilgari surildi. Bolalar huquqlarini ifodalaydigan xalqaro institutning mavjud emasligi, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning implementatsiya qilinishini nazorat qiluvchi yana bir shartnomaviy organning tuzilishiga olib keldi [5:14].

Mehnat migrantlari va ularning oila a’zolari huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya loyihasini ishlab chiqish jarayonida ham qanday turdagi nazorat organini tuzish to‘g‘risida bahs-munozaralar yuzaga keldi. G‘arb davlatlari tegishli nazorat organi sifatida Xalqaro mehnat tashkilotini ma’qulladi. Janubiy davlatlar boshqa shartnomalarga nisbatan o‘rnatilgan tizim singari yangi

shartnomaviy organni tashkil qilishni taklif qildi. Mazkur turlicha qarashlar Xalqaro mehnat tashkiloti doirasida mehnat muhojirlarining huquqlari bo‘yicha mavjud standartlarni ishlab chiqishni davom ettirish yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligi ostida inson huquqlari bo‘yicha alohida, qo‘shimcha shartnoma qabul qilish masalasini o‘rtaga tashladi [6:23].

XMTga konvensiyaning implementatsiyasini nazorat qilish vazifasini yuklash uning katta tajribasi va tan olingan vakolatlari bilan bevosita bog‘liq edi. Shu bilan birga XMT qo‘mitaga ma’lum bir miqdordagi ekspertlarni tayinlash vakolatiga ega bo‘lishi lozim edi. Qolaversa, XMTga a'zo davlatlar tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish vakolatini berish muhim muvofiqlik masalalarini ham hal qiladi. Biroq yangi shartnomaviy organni yaratish tarafdorlari konvensiya orqali tartibga solinuvchi munosabatlar XMT vakolatidan tashqariga chiqishini ta’kidladi. Bunga sabab sifatida konvensiyaning faqatgina mehnat bilan bog‘liq masalalarni emas, balki ilgari qabul qilingan XMT kovensiyalarida mavjud qoidalarga nisbatan inson hquqlarining kengroq doirasini qamrab olishi keltirildi.

Natijada konvensiyaning implementatsiyasini ta’minlash uchun mustaqil ekspertlar organini tuzish orqali murosaga erishildi, ammo Mehnat migrantlari va ularning oila a’zolarining huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 74-moddasi 5-bandiga muvofiq Xalqaro mehnat tashkilotining vakili qo‘mita majlislarida maslahatchi sifatida ishtirok etishi belgilandi.

Majburiy yo‘q qilish bo‘yicha qo‘mitani loyihalashtirish jarayonining o‘ziga xos tarafi shundaki u ikkinchi shartnomaviy organni isloh qilish tashabbusi bilan to‘g‘ri keldi. Loyiha ishtirokchilari tizimning ortiqcha yuki, uning moliyaviy ahvoli va allaqachon ma’lum bo‘lgan kamchiliklari to‘g‘risida ko‘plab mavjud asoslarga qaramay, boshqa shartnomaviy organni tuzishga qaror qilish sababini ko‘rib chiqishi juda qiziq.

Dastlab 2004-yilda loyiha mualliflari o‘rtasidagi munozaralarda konvensiya uchun monitoring organini tanlashga chuqurroq e’tibor qaratildi. Ko‘pgina ishtirokchilar shartnomaviy organlarining soni ko‘payishidan xavotir bildirishdi va “moliyaviy va inson resurslari jihatdan eng kam xarajatli yechim” topish zarurligini ta’kidlashdi. Ushbu mavzu muzokaralar jarayoniga tahdid solishi mumkinligini hisobga olib, ishchi guruh raisi dastlab konvensiyaning mazmun-mohiyatini muhokama qilishni keyin esa uni implementatsiya qilishning tegishli mexanizmlarini ishlab chiqishni davom ettirishni taklif qildi.

Nazorat organining kelajakdagi tuzilmasi bo‘yicha asosan uchta taklif ilgari surildi. Birinchi g‘oya Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro konvensiyaga qo‘shimcha protokol ishlab chiqish va uning implementatsiyasini nazorat qilish uchun Inson huquqlari qo‘mitasiga vakolat berish edi. Majburiy yo‘qolib ketishlar Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha konvensiyaning bir qancha qoidalarini, xususan, 6, 7 va 9-moddalarini buzishdan iborat bo‘lgani uchun Inson huquqlari qo‘mitasi konvensiyaga rioya etilishini nazorat qilish vakolatiga ega bo‘lish, ehtimol, izchillikni ta’minlashga xizmat qo‘shishi mumkin edi. Boshqalar tomonidan ham qo‘shimcha protokol ishlab chiqish taklifini bildirishdi. Ammo farqli jihati shundaki, Inson huquqlari qo‘mitasining maxsus monitoringga bag‘ishlangan quyi qo‘mitasi tashkil etilishi kerak edi. Nihoyat, boshqa mustaqil monitoring organini tashkil etish taklif qilindi. Mazkur g‘oya ko‘pchilik tomonidan ma’qullandi [7:6].

Birinchi navbatda Inson huquqlari qo‘mitasining o‘zida ortiqcha yuklamalar mavjud ekanligi va inson hquqlari bo‘yicha boshqa xalqaro hujjatning implementatsiyasini nazorat qilish qo‘shimcha xarajatlarga olib kelishi qayd etildi. Ikkinchidan, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi konvensiya va Majburiy yo‘q qilish bo‘yicha konvensiya tomonlari kelishib olishlari shart emas, bu huquqiy qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, mumkin bo‘lgan ratifikatsiyaga to‘siqlar. Bundan tashqari, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi konvensiyaning ikkita mavjud qo‘shimcha protokoli davlatlardan shartnomaning o‘ziga a’zo bo‘lishni talab qiladi.

Mavjud masala bo‘yicha ishchi guruh o‘zining so‘nggi sessiyasigacha aniq bir xulosaga kela olmadi. Faqatgina ishchi guruh raisi tomonidan “ayrim murosa qoidalari” kiritilganidan so‘ng murosaga erishildi. Ishchi guruh raisi tomonidan yana bir mustaqil shartnomaviy organini tuzish taklif qilindi. Ammo shartnomaviy organ isloh qilish jarayoniga javob bera olishi uchun, ushbu masala konvensiya kuchga kirgandan keyin olti yil o‘tgach qayta ko‘rib chiqilishi kerakligi ta’kidlandi. Natijada ishchi guruh yangi tashkil etilgan qo‘mita tarkibini olti yildan so‘ng qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini beruvchi murosa qoidasini kiritgan holda yana bir mustaqil qo‘mita tashkil etishni nazarda tutuvchi loyihani kelishib oldi.

Barcha shaxslarni majburiy yo‘qolishdan himoyalash to‘g‘risidagi konvensiyaning 24-moddasiga muvofiq 2016-yil 19-dekabrda ishtirokchi davlatlar konferensiyasi chaqirildi. Mazkur konferensiya davomida “Majburiy yo‘qolishlar bo‘yicha qo‘mita 28–36-moddalarda belgilangan funksiyalarga muvofiq Barcha shaxslarni majburan yo‘qolishdan himoya qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya monitoringini amalga oshirishi”, bo‘yicha kelishuvga erishildi. Ushbu masala bo‘yicha yana munozaralarning qata boshlanishi shartnomaga o‘zgartirish kiritish bo‘yichauzoq muddatli munozaralarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani nazorat qiluvchi organni tuzish jarayoniga to`xtaladigan bo‘lsa, mazkur konvensiyani ishlab chiquvchi ishchi guruh davom etayotgan shartnomaviy organlarni takomillashtirish jarayoni to‘g‘risida yaxshi xabardor edi. Ular qo‘shimcha shartnomaviy organini tashkil etish bo‘yicha oldingi ishlab chiqish jarayonlaridan olingan saboqlarni e’tiborga olish zarur deb hisobladilar. Muvaqqat qo‘mitaning sakkizinchi sessiyasidagi ma’ruzasigacha konvensiyani implementatsiya qilish bo‘yicha aniq qoidalar va mumkin bo‘lgan nazorat organi haqida loyihada nazarda tutilmagan bo‘lsa-da, loyiha boshlanishidanoq boshqa shartnomaviy organni tuzish g‘oyasi ustunlik qildi [8:10].

Oldingi rivojlanish jarayonida ishlab chiqilgan qarashlar va mantiqdan kelib chiqib , Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi qo‘mitani ishlab chiqish jarayonida muvofiq takliflarni ilgari surish ehtimoli mavjud edi. Ba’zi delegatsiyalar mustaqil organ tashkil etishni taklif qilgan bo‘lsa, boshqa delegatsiyalar inson huquqlari bo‘yicha boshqa xalqaro shartnomalar bo‘yicha allaqachon mavjud bo‘lgan monitoring mexanizmlari yetarli ekanligini ta’kidladilar. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari bo‘yicha ombudsmaniga shartnomalar implementatsiya qilinishiga ko‘maklashish va shikoyatlarni qabul qilish, shuningdek, ishtirokchi-davlatlarning boshqa mavjud shartnomaviy organlariga hisobot berish majburiyatini yuklash vazifasi yuklangan vakolat

yaratish taklif etildi. Shartnomaviy organ tizimi va uning nazorat mexanizmi sezilarli takroriylik, og‘ir hisobot majburiyatlari, ko‘rib chiqilayotgan hisobotlar hajmining o‘sishi, surunkali resurslar tanqisligi kabi bir qator qiyinchiliklarga duch kelayotganligini inobatga olgan holda, loyiha ishtirokchilari amaldagi organlardan samaraliroq bo‘lgan nazorat organini tashkil qilish lozim deb hisobladilar. Shunisi ajablanarliki, ma’lum kamchiliklarga qaramasdan yangi nazorat organining tuzilishi to‘g‘ri deb hisoblandi. Delegatlar tomonidan “xalqaro hamjamiyat xalqaro monitoring mexanizmini yaratish uchun shartnomaviy organi islohotining tugashini kutmasligi kerak” degan fikr bildirildi. Bundan tashqari shartnomani ishlab chiqishda “islohotlar jarayoni bilan to‘xtalib qolmaslik” va “shartnomaviy organni tuzishdan boshqa muqobil yechim yo‘qligi” ham ta’kidlandi. Muhokamalar davomida mavjud shartnomaviy organlarga konvensiyaning implementatsiyasiya qilinishini nazorat qilish vazifasini yuklash taklifi ham bildirildi. Bunga asos sifatida mavjud shartnomaviy organlar “diskriminatsiyani bevosita tekshirish” va yangi konvensiyaga kiritilishi kerak bo‘lgan ko‘plab masalalarni allaqachon qamrab olganligi keltirildi. Yettinchi sessiyada kelishuvga erishilmaganligi sababli, implementatsiya va monitoring masalasida “sessiyalararo norasmiy munozaralar” o‘tkazishga qaror qilindi. Sakkizinchi sessiya mobaynida dastlab monitoring va implementatsiya masalalari muhokama qilindi. Uzoq muddatli muhokamalardan so‘ng, Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari bo‘yicha konvensiyaning implementatsiyasini nazorat qilish uchun yangi shartnomaviy organ tuzishga kelishib olindi.

Ko‘rinib turganidek ko‘pchilik lohiha iishtirokchilari jumladan Majburiy yo‘q qilishdan barcha shaxslarni himoyalash bo‘yicha qo‘mita va Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari bo‘yicha qo‘mita loyihasini ishlab chiquvchilar shartnomaviy organlar sonining ortishi va qo‘mitalarning samaradorligini inobatga olishgan. Ajablanarlisi shundaki, ularning barchasi moliyaviy oqibatlar, vakolatlarning sezilarli takrorlanishi haqidagi turli xavotirlarga qaramay, oxir-oqibat boshqa mustaqil shartnomaviy organini tuzishni tanlashdi. Ko‘p tomonlama shartnomalarning, xususan, inson huquqlari bo‘yicha shartnomalarning tuzilishi ko‘pincha ma’lum bir siyosiy muhitga bog‘liq bo‘lganligi va kutilmagan holatlarning natijasi bo‘lishi mumkinligi sababli, shartnomaviy organlar tizimining rivojlanishi izchil va qat’iy bo‘lmaganligini tushunish mumkin.

Inson huquqlari bo‘yicha uchta keyinchalik tuzilishi mumkin bo‘lgan shartnomalar, jumladan biznes va inson huquqlari, qariyalar huquqlari va dehqonlar huquqlari bo‘yicha mumkin bo‘lgan shartnomalarga ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ian Seiderman, ‘The UN High Commissioner for Human Rights in the age of global backlash’ (2019) 37(1) Netherlands Quarterly of Human Rights; See, however, Beth Simmons, Mobilizing for human rights. International law in domestic politics (Cambridge University Press 2009) 149-153. For a rebuttal of this argument, see my PhD thesis, Krommendijk (n 3) 49-52 and 387-388.

2. Jasper Krommendijk, ‘The (in)effectiveness of UN human rights treaty body recommendations’ (2015) 33(1) Netherlands Quarterly of Human Rights; Jasper Krommendijk, The domestic impact and effectiveness of the process of state reporting under UN human rights treaties in the Netherlands, New Zealand and Finland. Paper pushing or policy prompting? (Intersentia 2014).

3. Valentina Carraro, 'Promoting Compliance with Human Rights: The Performance of the UN Universal Periodic Review and Treaty Bodies' (2019) 63(4) International Studies Quarterly, 1079-1093.

4. Michael O'Flaherty, 'The Concluding Observations of United Nations human rights treaty bodies' (2016) 6(1) Human Rights Law Review 34-36. Walter Ka¨lin, 'Examination of state reports', in Helen Keller and Geir Ulfstein (eds), UN Human Rights Treaty Bodies: Law and Legitimacy (Cambridge University Press 2012) 56-57.

5. Human Rights Committee, 'The Predictable Review Cycle' (Human Rights Committee) <https://www.ohchr.org/EN/HRBodies/CCPR/Pages/PredictableReviewCycle.aspx> accessed 15 November 2019

6. This corresponds with the General Assembly's Resolution's reference to 'a limit on the number of questions'. For this, see UN Doc. A/68/L.37 (2014), para 1.

7. For a detailed list of concerns see Secretariat, Concept Paper on the High Commissioner's Proposal for a Unified Standing Treaty Body, 14 March 2006, UN Doc. HRI/MC/2006/ CRP.1, paras. 16–26.

8. On this history see Ando, 'The Development of the HRC' (n. 18) and Kretzmer, 'The UN HRC' (n. 7).